

**“Inson huquqlari bilimdoni -2023”  
ko‘rik-tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida**

**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur nizom **“Inson huquqlari bilimdoni - 2023”** ko‘rik-tanlovining o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Ko‘rik tanlov OTMlarning talabalar doirasida inson huquqlari sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini ko‘rsatish xamda amaliyotda qo‘llashga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga qaratilgan.

1.3. Ko‘rik-tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish uchun Oliy ta‘lim muassasalari mas‘ul etib belgilandi.

**II. Ko‘rik-tanlovning maqsad va vazifalari**

2.1. “Inson huquqlari bilimdoni - 2023” ko‘rik-tanlovining asosiy maqsadi iqtidorli yosh talabalarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash, yuksak bilimli, mustaqil fikrlaydigan, inson huquqlari bo‘yicha mukammal bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan, zamonaviy g‘oya loyihalarini qo‘llab quvvatlash, inson huquqlari bo‘yicha huquqiy savodxonlik oshirish, yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirishdan iborat.

**III. Ko‘rik-tanlovni tashkil etish**

3.1. “Inson huquqlari bilimdoni” ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rinlarda ko‘rik-tanlov deb yuritiladi) tashkilotchisi Oliy ta‘lim muassasalari hisoblanadi.

3.2. Oliy ta‘lim muassasalaridan ko‘rik-tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan talabalar Oliy ta‘lim muassasasiga ariza topshiradi

3.3. Ko‘rik-tanlovga ariza topshirish 2023-yil 20 noyabrdan 1-dekabr soat 18:00ga qadar davom etadi. 2023 yil 1-dekabr soat 18:00dan keyingi arizalar qabul qilinmaydi.

3.4. Ko‘rik-tanlov jarayoni va natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar OTMlarning rasmiy veb saytida yoritib boriladi.

**IV. Ko‘rik-tanlovni o‘tkazish joyi va muddati**

4.1. Ko‘rik-tanlov 2023 yil 6-7-dekabr kunlari har bir oliy ta‘lim muassasalari binosida o‘tkaziladi. G‘oliblar OTM va vazirlikning rasmiy edu.uz sayti orqali e‘lon qilinadi va o‘rnatilgan tartibda rag‘batlantiriladi.

**V. Ko‘rik-tanlov ishtirokchilari**

5.1. Ko‘rik-tanlov oliy ta‘lim muassasalarining bakalavr hamda magistr talabalari o‘rtasida bo‘lib o‘tadi.

**VI. Ko‘rik-tanlov nominatsiyalari**

- 6.1. Eng yaxshi inson huquqlari bilimdoni;
- 6.2. Eng yaxshi inson huquqlari universal shartnomalari bilimdoni;
- 6.3. Eng yaxshi inson huquqlari soxasidagi qonunchilik takliflari;
- 6.4. Eng yaxshi innovasion g‘oya muallifi;

## **VII. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etish tartibi**

7.1. Ko‘rik tanlov ishtirokchisi o‘z ishtirokini ma‘lum qilish maqsadida ushbu Nizomning 3.3-bandida keltirilgan tartib asosida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi shart.

7.2 Ko‘riq tanlov nominatsiyalari ayrimlari test shaklida va yozma insho (esse) shaklida, hamda konunchilik takliflari yozma ish shaklida olib boriladi, innovasion g‘oyalar bundan mustasno.

7.3. Nominatsiyalar bo‘yicha ishtirokchilar tegishli o‘quv yilida bajarilgan hamda boshqa ko‘rik-tanlovda ishtirok etmagan uchtagacha loyiha, o‘z loyihalari bilan qatnashishi mumkin. Ekspert guruhi ijodiy ishlarni saralashni o‘z zimmasiga oladi.

7.4. Ko‘rsatilgan muddatdan kechikib taqdim etilgan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan ishtiroqchilar ko‘rik-tanlovga qo‘yilmaydi.

## **VIII. Ko‘rik-tanlovga taqdim etiladigan loyiha, ishlanma va ijodiy ishlar uchun talablar**

8.1. Loyiha, takliflar va ijodiy ishlarda dolzarblilik, innovasion g‘oya, yechim va inson huquqlari sohasida o‘z aksini topishi lozim.

8.2. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi, loyiha, takliflar va ijodiy ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oliy ta‘lim muassasasining tegishli bo‘limiga o‘z vaqtida jo‘natilishi talab etiladi.

8.3. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etuvchilar soni cheklanmagan.

8.4. Ijodiy ishlar o‘rtasida raqobat yoki ballar teng bo‘lganda, loyiha va ishlanmalarga doir ish mualliflariga komissiya a‘zolari tomonidan savollar berilishi mumkin.

8.5. Ko‘rik-tanlov g‘oliblari hay‘at a‘zolari tomonidan aniqlanadi.

8.6. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etish uchun loyiha va takliflar yuborishning ohirgi muddati axborot xatida belgilanadi.

## **IX. Ko‘rik tanlovning baholash tartibi**

9.1. Tanlov komissiyasi xolisonalik va shaffoflik asosida ko‘rik-tanlovda ishtirok etmaydigan inson huquqlari sohasi mutaxassislari va professor-o‘qituvchilardan har bir nominatsiya bo‘yicha alohida 4 yoki 6 nafar tarkibda tayinlanadi. Har bir nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar ilovada keltirilgan mos baholash mezonlari asosida aniqlanadi. Baholash ko‘rik-tanlov komissiya a‘zolari tomonidan amalga oshiriladi.

## **X. Ko‘rik-tanlovni moliyalashtirish**

10.1. Mazkur ko‘rik-tanlovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar oliy ta‘lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

## **XI. Ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

11.1. Ko‘rik-tanlovning yakuniy bosqichida taqdim etilgan barcha loyiha, ishlanma va ijodiy ishlar nominatsiyalar bo‘yicha ko‘rik-tanlov komissiya a‘zolari tomonidan g‘oliblar aniqlanadi.

11.2. Taqdirlash marosimida OTMlarni professor-o'qituvchilari, vazirlik xodimlari ishtirok etadilar.

11.3. Ko'rik-tanlov g'oliblarning ishlarini baholash natijasiga ko'ra, birinchi o'rin I darajali, ikkinchi o'rin II darajali va uchinchi o'rin III darajali diplom hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlanadi.

11.4. Ko'rik tanlovning boshqa ishtirokchilari faol ishtiroki uchun tashakkurnomasi bilan taqdirlanadi.

## **XII. Ko'rik-tanlovni yoritilishi**

12.1. Ko'rik-tanlov respublika ommaviy axborot vositalari, oliy ta'lim muassasalarning rasmiy veb saytida, televideniye va radioda keng yoritiladi.

**“Inson huquqlari bilimdoni -2023” ko‘rik-tanlovining  
Dasturi va ishtirokchilarining  
nominatsiyalar bo‘yicha baholash mezonlari**

So‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o‘rinlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi “Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” gi PF-70-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ilovaning 17-3-bandida ta‘lim muassasalarida maktab o‘quvchilari va talabalar o‘rtasida “Inson huquqlari bilimdoni” ko‘rik-tanlovini tashkil etish vazifasi belgilangan.

Dastur talabalar doirasida inson huquqlari sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini ko‘rsatish hamda amaliyotda qo‘llashga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga va inson huquqlari bo‘yicha huquqiy savodxonlik oshirishiga qaratilgan. Ko‘rik-tanlov talabalarni inson huquqlari bo‘yicha bilimini bilishini aniqlab berishi, ularning ilmiy adabiyotini, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo‘lib, unda nominatsiyalar g‘oliblarini aniqlashga quyidagi shakilda o‘tkaziladi:

1. **Qo‘rik-tanlovning “Eng yaxshi inson huquqlari bilimdoni”** nominatsiyasini 50 ta savoldan iborat test sinovlari shaklida tasdiqlash. Xar bir to‘g‘ri javobga 2 balldan baholash tartibini o‘rnatish.
2. **Qo‘rik-tanlovning “Eng yaxshi inson huquqlari universal shartnomalari bilimdoni”** nominatsiyasini 30ta savoldan iborat test sinovlari va yozma insho (esse) shaklida joriy etish.
3. **Qo‘rik-tanlovning “Eng yaxshi inson huquqlari sohasidagi qonunchilik takliflari”** nominatsiyasini MS PowerPoint programmasi orqali prezentatsiya shaklida xamda yozma insho (esse shaklida) qabul qilish.
4. **Qo‘rik-tanlovning “Eng yaxshi innovasion g‘oya muallifi”** nominatsiyasini aholiga qulaylik yaratish yo‘nalishida yaratilgan g‘oyallarni tanlov hay‘ati tomonidan baholanadi.